



MOLIYA SOHASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI

Xolbekov Sayfulmalik

Mamasoatov Nursulton

*Termiz Davlat Universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya: Milliy iqtisodiyotning mohiyati va funksiyalari moliya tizimi faoliyatida o'z ifodasini topadi Moliya — pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ehtiyojlar, milliy iqtisodiyot, taqsimlash vazifasi, nazorat vazifasi, moliyaviy ahvol.

Moliya — markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi. Moliya iqtisodiyotning pul sektorida yuzaga keladi va daromadlar asosida yuz beradi. Pul sektori pul va pulga tenglashtirilgan aktivlarning harakati bo'lib, buning natijasida pul fondlari vujudga keladi. Maqsadli pul fondlari — bu Moliya resurslari yoki Moliya ob'yektidir. Moliya sub'yekti shu fondlarni yaratish, taqsimlash va ishlatishda ishtirok etuvchilar, ya'ni korxonalar (firmalar), turli xo'jaliklar, xonadonlar, nodavlat jamoat tashkilotlari va davlat idoralaridan iborat. Moliya daromad hosil qilish va uni sarflashni anglatadi. Daromadlar ilk bor, ya'ni birlamchi taqsimlanganda korxonalar, davlat va xonadon Moliyasi yuzaga keladi. Bu o'rinda birlamchi daromadlar hosil bo'ladi, korxonalar Moliya fondlarini tashkil etadi, ishlovchilar ish haqi oladi va bu xonadon daromadini hosil etadi, korxonalar byudjetga soliq to'laydilar va bu davlat daromadini yuzaga keltiradi. Daromadlar ikkilamchi taqsimlanganda byudjetdan trans-fertlar (to'lovlar) va turli maxsus fondlar ajratiladi. Daromadlar kayta taqsimlanganda turli nodavlat va jamoat tashkilotlari korxonalaridan, aholidan va byudjetdan pul olib, o'zining maxsus fondlarini hosil etadi. Moliya pul munosabatlari sifatida iqtisodiyotda muhim vazifalarini bajaradi: 1. Taqsimlash vazifasi — jamiyat daromadi bo'lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) pul, qiymat shaklida iqtisodiyot sub'yektlari o'rtasida bo'linadi, ulardan har biri o'z hissasini oladi, o'z daromadiga ega bo'ladi.

2. Rivojlantirish vazifasi — Moliya fondlaridan pul berish orqali iqtisodiyot sub'yektlarining faolligi yuzaga keltiriladi. Rag'batlantirish Moliya vositalarini qo'llash orqali, chu-nonchi mukofotlash, subsidiya, subvensiya ajratish, jarima solish, sanatsiya va soliqlarni qo'llash vositasida amalga oshiriladi. Bozor sharoitida asosiy rag'batlantirish vositasi soliq hisoblanadi. Soliqdan imtiyozlar berish soliq



to'lovchilarni qo'liga tekkan daromadini oshiradi. Maqsadli imtiyozlar ularni yaxshi ishlashga undaydi.

3. Ijtimoiy y himoya vazifasi — nochor aholi qatlamlari davlatdan, korxonalar va har xil nodavlat tashkilotlaridan va puldor fuqarolardan moliyaviy yordam oladi. Mazkur vazifani davlat byudjetining ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag'lari bajaradi.

4. Axborot berish vazifasi — mamlakat va ayrim sub'yektlarning moliyaviy ahvoli haqida axborot. Moliyaviy ahvolni tavsiflovchi axborot (ko'rsatkichlar) iqtisodiyotga tashhis qo'yishga xizmat qiladi.

5. Nazorat vazifasi — moliyalashtirish yo'sinida ajratilgan pulni naqadar maqsadli ishlatilishini pul beruvchilar nazorat qiladilar. Shu pulni o'rinli yoki o'rinsiz ishlatilishiga qarab moliyalashtirish ko'paytiriladi, qisqartiriladi yoki umuman to'xtatiladi.

Milliy iqtisodiyotning bo'g'inlariga qarab turli darajada Moliya amal qiladi. Uning asosiy bo'g'ini quyi darajadagi yoki mikromoliyadir. Bunga korxonalar Moliyasi (buni korporativ Moliya deb yuritiladi), xonadon Moliyasi, jamoat tashkilotlari Moliyasi, sug'urtalash Moliyasi kabilar kiradi. Davlat Moliyasi makrodarajadagi Moliyani tashkil etadi va milliy manfaatlariga xizmat qiladi. Niqoyat milliy iqtisodiyotning eng yukri darajasi bu metimoliya bo'lib, bu tabiatan xalqaro Moliya munosabatlari hisoblanadi, mamlakatlarda yuz beradi, xalqaro Moliya tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Turli darajadagi Moliya o'zining ko'lami bilan ajralib turadi. Moliya turli darajadagi moliyalashtirish usullari jihatidan ham farqlanadi. Korxonalar, sug'urta va xonadon Moliyasi o'zini o'zi moliyalashtirish qoidasiga tayanadi. Davlat moliyasi byudjetdan moliyalashtirish tamoyillarini qo'llaydi. Turli nodavlat tashkilotlari va jamoat tashkilotlari qisman o'zini o'zi moliyalashtiradi.

Milliy iqtisodiyotning mohiyati va funksiyalari moliya tizimi faoliyatida o'z ifodasini topadi Moliya — pul mablag'laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi.

Moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni moliyaviy ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Moliyaning taqsimlovchi vazifasi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Moliyaning rag'batlantiruvchilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiriladi.



Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

Hech bir rivojlanayotgan mamlakat muammolardan holi emas. Bu asosan iqtisodiy masalalar bilan bog'liq bo'ladi. Nafaqat ta'lim, barcha sohalarida ham eng og'riqli, xavfli nuqta moliyaviy xato va muammolardir. Bu oylik hisoblashdan tortib, byudjetdagi mablag'larni yo'naltirishgacha bo'lgan jarayonlarda ko'zga tashlanadi.

Sir emaski, xalq ta'limi tizimi ham bundan mustasno emas. Ya'ni, xalq ta'limi tashkilotlari, muassasalarida ham moliyaviy xato-kamchiliklar doimiy kuzatiladi. Kamida oylikni o'z vaqtida olmagan yoki ustamasi noto'g'ri hisoblangani to'g'risida shikoyatlar hamisha bo'lgan.

Tizimda faoliyat olib borayotgan moliya-buxgalteriya xodimlari o'z xizmat vakolatlarini bilib-bilmasdan yoki ko'r-ko'rona byudjet ta'minotini samarasiz yo'naltirish, yillik xarajatlar smetasini noto'g'ri taqsimlash, tizimga ajratilgan mablag'larni talon-toroj qilish, xizmat vazifasini suiiste'mol qilish, moddiy-texnik bazani saqlashdagi mas'uliyatsizlik va hokazo muammolar ularning moliyaviy, huquqiy savodxonligini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ya'ni, muammoning kelib chiqishi moliyaviy savodxonlikka borib taqalmoqda. Bu degani yuqorida aytganimizdek, ba'zi holatlarda moliyachilar tushunmagan holda ham xatoga yo'l qo'ygan.

Muammoga yechimni qayerdan boshlash kerak?

Xalq ta'limi vazirligi bu muammolar yechimiga yangicha yondashmoqda. Ya'ni, xalq ta'limi tizimidagi hisobchilarni moliyaviy savodxonlikka o'qitishni ilgari surmoqda.

Yangi yildan boshlab, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining "Uzluksiz kasbiy ta'lim" onlinedu.uz platformasi orqali tizim buxgalterlarining uzluksiz malaka oshirishi yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda.

Vazirlikdan ma'lum qilishlaricha, bunda avvalo, so'rovnomalar, savollar va testlar orqali buxgalterlarning bilim ko'nikma va malakalari aniqlanib, shunga ko'ra talab ehtiyojidan kelib chiqib dasturlar, kontentlar tayyorlanadi.

Tizimdagi barcha hisobchilar esa maxsus kontentlar joylashgan platforma orqali qayta o'qitiladi. Bu kurslarda moliyaviy tartiblardagi yangilik va o'zgarish

lar, oylik maoshini to'g'ri hisoblash yoki yangi kiritilgan mezonlar bo'yicha ustama hisoblashdagi kabi bilim-ko'nikmalarga ega bo'lish mumkin. Mazkur kurslardan keyin moliya-buxgalteriya xodimlari test sinovidan o'tkazilib, kasbiy layoqati bo'yicha Sertifikat berish tizimi ham yo'lga qo'yiladi.

Bu muhim qadam tizimdagi moliyaviy muammolarga yechim topishda natijasini ko'rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6
2. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.
3. Иванов М.А., Гужина Г.Н. Особенности управления рисками в рыночных условиях//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 7 (12). С. 198.
4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92. 5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014. - 110 с

Internet saytlari:

arxiv.uz

kutubxona.uz